

Huawei va ta'lim muassasamiz aqlli qishloq xo'jaligi loyihasini boshlashdi

Huaweining O'zbekistondagi filiali va Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti qishloq xo'jaligi va sug'orish tizimlari sohasida innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo'yicha o'zaro anglashuv memorandumini imzoladilar. Xuddi shu masalaga bag'ishlangan uchrashuv bo'lib o'tdi. Tadbirni institut rektori professor O'. Umurzakov kirish so'zi bilan ochdilar. So'ngra Huawei direktori Lyu Tzyasinga so'z berildi. U o'zaro hamkorlikdan, dunyo universittlari ichida reyting ko'rsatkichi baland bo'lgan TIQXMMI bilan hamkorlik qilayotganidan benihoya mamnunligini ta'kidlab o'tdi. Keyin Suv xo'jaligi vaziri o'rinbosari Azim Nazarov, Qishloq xo'jaligi vaziri o'rinbosari o'z mulohazalarini bildirdilar.



Korporativ ijtimoiy mas'uliyatni bajarish va qishloq xo'jaligi va sug'orish tizimlarini boshqarish sohasida innovatsion raqamli texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, O'zbekistonda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida imzolangan memoanum istiqbolli rejalarga yo'l ochishi aniq. Memorandum doirasida Huawei va TIQXMMI 5G texnologiyalari, aqlli datchiklar va ma'lumotlarni qayta ishlashning aqlli platformasi asosida boshqarish tizimlari, monitoring va ma'lumotlarni qayta ishlash tizimlaridan foydalangan holda "aqlli" qishloq xo'jaligi bo'yicha loyihani boshlash masalasi kelishib olindi.



Aqlli qishloq xo'jaligi loyihasini amalga oshirish tabiiy resurslardan foydalanishning samaradorligini oshirishga, hosilning holatini nazorat qilish jarayonlarini kuzatishni va boshqarishni soddalashtirishga, tashqi holatni tahlil qilish orqali tashqi muhit hosiliga mumkin bo'lgan ta'sirlardan ogohlantiradi. Ob-havo sharoiti, tuproq, sug'orish tizimlari, shuningdek, real vaqtda aqlli yer uchastkasidan video ma'lumotlarini olish mumkin. Loyiha TIQXMMI mutaxassislari va professorlari tomonidan Huawei kompaniyasining ekspert va texnik ko'magi hamda Qishloq xo'jaligi vazirligi ko'magi bilan "Uztelekom" Milliy telekommunikatsiya operatori AJ tarmoqlarida ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi.



Rektor O'. Umurzakov Huawei, Suv vazirligi va Qishloq xo'jaligi vazirligi, Uztelekom, Uzmobil kompaniyalari vakillarini kelganliklari uchun aohida minnatdorchilik bildirdi. O'zbekistonda qishloq xo'jaligini raqamlashtirish sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri ekanligi ta'kidlandi. Xususan, shuni ta'kidlash kerakki, institutning ilmiy-tadqiqot sohasida aqlli qishloq xo'jaligini joriy etish bu boradagi dastlabki qadamlardan biridir. Ushbu model boshqa qishloq xo'jaligi korxonalarida amalga oshirish uchun hayotiy namuna bo'lib xizmat qilishi mumkinligi aytiladi. Albatta, bundan yuqori marralarni zabt etish zarurligi ta'kidlandi.



"Bizning Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti bilan hamkorligimiz va o'zaro qo'llab-quvvatlashimiz uzoq tarixga ega. Joriy yil boshidan buyon biz institutda Ma'lumotlar markazini ishga tushirish loyihasini birgalikda amalga oshirdik, shuningdek, o'qituvchilar tarkibining o'qitish va raqamli mahoratini oshirdik. Memorandumni imzolash marosimi bizning hamkorligimizni yangi bosqichga olib chiqadi, beshinchi avlod tarmoqlari va innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda qishloq xo'jaligi sohasi uchun ochiladigan istiqbollarni namoyish etish imkoniyatini beradi. Ushbu loyihaning asosiy maqsadi - O'zbekistondagi fermerlarning ko'p mehnat talab qiladigan ishlarini soddalashtirish va shu bilan birga samaraliroq qilish, shuningdek, atrof-muhitga g'amxo'rlik ko'rsatish, mamlakatning tabiiy boyliklaridan oqilona foydalanishni yaxshilashdan iborat», - dedi Liu Jiaxin, Huawei filialining O'zbekistondagi direktori.



Ma'lumot o'rnida shuni aytishni ietwrdikki, Huawei 20 yildan ortiq vaqtdan beri faoliyat yuritib kelmoqda, turli iqtisodiy sohalarda raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali aholining ijtimoiy rivojlanishiga qadriyat va foyda keltirishga harakat qilmoqda. 2020 yilda kompaniya bir qator ijtimoiy va ma'rifiy loyihalarni amalga oshirdi, shu jumladan Toshkent shahridagi ikkita maktabni raqamlashtirish uchun uskunalar bilan ta'minlash, IT universitetlari talabalari uchun "Kelajak uchun urug '" o'quv loyihasi, Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti - "O'zbekiston AKT Kuzatuvchisi", shuningdek, "Ezgu Amal" jamoat fondi bilan hamkorlik va BMT Taraqqiyot dasturining O'zbekistondagi vakolatxonasi bilan birgalikda Orol dengizini ko'kalamzorlashtirish tashabbusida ishtirok etdi. Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, ushhu loyihaning ishga tushirilishi qishloq va suv xo'jaligi sohasidagi bir qator muammolarni yechishga yo'l ochadi. Tadbir yakunida mehmonlarga institut ramzi tushirilgan esdalik sovg'alari taqdim etildi.

TIQXMMI matbuot xizmati